



## **XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANТИРISHDA XORИJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

**Abdullahayev Muhriddin Olim o'g'li -**  
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligi Xizmatlar sohasi  
statistikasi boshqarmasi bo'lim boshlig'i*

**doi:** [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss4/a58](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a58)

**Annotatsiya.** Maqolada xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega bo'lgan AQSh, Lyuksemburg, Fransiya, Livan va Latviya davlatlari xizmatlar sohasining rivojlanish tarixi, tendensiyalari, o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Iqtisodiyotning uchinchi sektori samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan aniqlashga harakat qilindi. Davlatlar tajribasidan foydalangan holda O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantrish bo'yicha takliflar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmatlar sohasi, YaIM xizmatlar ulushi, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim xizmatlari, AQSh xizmatlar sohasi, Lyuksemburgda xizmatlar sohasi, Fransiyada xizmatlar sohasi, Livanda xizmatlar sohasi, Latviyada xizmatlar sohasi.

### **ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ СФЕРЫ УСЛУГ**

**Абдуллаев Мухридин Олим угли -**  
*Начальник отдела Управления статистики  
сфера услуг Агентства статистики  
при Президенте Республики Узбекистан*

**Аннотация.** В статье изучены история, тенденции и особенности развития сферы услуг США, Люксембурга, Франции, Ливана и Латвии, где сфера услуг имеет наибольшую долю в валовом внутреннем продукте страны. Эффективность третичного сектора экономики определяется теоретически и практически. Внесены предложения по развитию сферы услуг в Узбекистане с использованием опыта этих стран.

**Ключевые слова:** сфера услуг, доля услуг в ВВП, финансовые услуги, транспортные услуги, услуги связи и информатизации, услуги в сфере образования, сфера услуг США, сфера услуг Люксембурга, сфера услуг Франции, сфера услуг Ливана, сфера услуг Латвии.

### **EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICES SECTOR**

**Abdullahayev Muhriddin Olim ugli -**  
*Head of the Department of statistics of the service sector of the  
Agency of Statistics under the President of the Republic of Uzbekistan*

**Annotation.** In the article, the development history, trends and specific aspects of the service sector of the USA, Luxembourg, France, Lebanon and Latvia, where the service sector has a large share in the country's gross domestic product, were studied. The efficiency of the third sector of the economy is determined theoretically and practically. The proposals were made for the development of the service sector in Uzbekistan using the experience of the mentioned countries.

**Key words:** service sector, share of services in GDP, financial services, transport services, communication and information services, educational services, the US service sector, the Luxembourg service sector, the French service sector, the Lebanese service sector, the Latvian service sector.

**Kirish.** Insoniyatning iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ko'rinish turibdiki, qishloq xo'jaligidan sanoatga, sanoatdan xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga o'tish muayyan mamlakat, hatto, butun dunyo uchun tabiiy va muqarrar jarayondir. XVIII asr o'rta-lari va XIX asrgacha iqtisodiy jamiyatda qishloq xo'jaligi hukmronlik qilgan. 1860-yillarda Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan, so'ngra Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida takrorlanib, XIX asrda AQSh va Yaponiyaga yoyilgan sanoat inqilobi sanoatlashtirishning yangi davrini boshlab berdi. XX asrning o'rtalariga kelib AQSh "xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti"ga o'tgan birinchi davlat bo'ldi. Shu davrdan boshlab rivojlangan mamlakatlar ham xizmat ko'rsatish iqtisodiyotiga o'tishdi.

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, yalpi ichki mahsulotning (YaIM) global tarkibida ham, turli mamlakatlar iqtisodiyotida ham salmoqli ulushni egallaydi.

Ushbu maqolada biz xizmatlar sohasining rivojlanish evolyutsiyasini xorijiy davlatlar tajribasi misoldida o'rganib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiyotda xizmatlar sohasining vujudga kelishi, uning alohida tarmoq sifatida hisobga olinishi, tarixiy evolyutsiyasi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati haqida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'z asarlari, tadqiqotlari va xalqaro konferensiyalarda fikr va muhozalar keltirib o'tilgan. Ular tomonidan xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiy-

tida tutgan o'rni, ahamiyati, rivojlanishi, ijobji jihatlar o'z davrlaridagi mavjud holatlar bo'yicha ko'rsatib o'tilgan.

J.Delaunay va J.Gadrey "Iqtisodiy fikrdagi xizmatlar: uch asrlik munozaralar" asarida xizmatlar sohasining rivojlanish tarixi haqida iqtisodchilar va boshqa ijtimoiy olimlarning fikrlari hamda qarashlarini mahorat bilan yoritib bergenlar. Ular xizmatlar sohasini o'rganishga Birinchi jahon urushigacha qiziqish past darjada bo'lganini ta'kidlaydilar. Bu davrda barcha faoliyat xizmat ko'rsatish bo'lib ko'rillarda, tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi farq endi ahamiyatli hisoblanmasdi [1].

Adam Smit xizmatlarga "unumsiz mehnat" deb ta'rif beradi va u badavlat kishilar yoki davlat amaldorlari uchun deb hisoblaydi [2].

Karl Marks va Marksist ham xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyatini tan olmagan. Ular xizmatlarni milliy mahsulotda hisobga olmagan va natijsada xizmat ko'rsatish sohalari ko'pincha e'tibordan chetda qolgan [1].

Tovarlar va xizmatlar o'rtasidagi farqni eng to'liq muhokama qilgan olimlardan biri T.P.Hill bo'lib, u xizmatni "odamning holati o'zgarishi yoki biron-bir iqtisodiy birlikka tegishli bo'lgan tovar" deb ta'riflaydi [3].

Xizmatlar sohasining jahon miqyosida o'sishi Kanada iqtisodiy kengashi hisobotining (NBER) Zvi Griliches tomonidan tahrirlangan bir nechta bobralida keltirilgan. Unda Zvi Griliches xizmatlar sohasidagi o'sishning tezlashishi boshlanishini taxminan 1960-yil deb belgilaydi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, jahon yalpi ichki mahsulotida xizmatlarning ulushi 1947-yildan 1990-yilgacha taxminan 40 foizdan 60 foizga o'sdi, shu davrda xizmat ko'rsatish sohasida bandlik taxminan 40 foizdan 70 foizga yetdi [4].

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlari da xizmatlarning iqtisodiyotda o'rni haqidagi zamnaviy qarashlarning evolyutsiyasini V.Rostouning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin [5].

M.Kastels asarlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi zamnaviy iqtisodiy tizim evolyutsiyasidagi tabiiy hodisa sifatida qaraladi [6].

Afrikadagi rivojlanayotgan davlatlar Fransiyaning Ikkinchı jahon urushidan keyingi deyarli uch "ulug" o'n yilliklar davomida tarkibiy o'zgarishlar va yuqori o'sishga erishganidan saboq olishi mumkin. Bu muvaffaqiyatning asosiy omili ijtimoiy himoya siyosati, inson kapitaliga investitsiyalar va yuqori mahsulordorlikdagi xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'ldi [7].

Lyuksemburg iqtisodiy tuzilmasida 1970-yilarning o'rtalaridan boshlab xizmatlar ustunlik qiladi. Milliy boylikni yaratishda moliyaviy xizmatlar hamda asosan, korxonalarga ko'rsatiladigan xizmatlar asosiy rol o'ynaydi. Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasi sanoat yoki qurilish sohasiga qaraganda tezroq rivojlanmoqda. Bu tendensiya bandlik evolyutsiyasida ham o'z ifodasini topmoqda [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, statistik guruhlash, statistik jadval va grafiklar, o'zaro tahlil, ilmiy abstraksiya, vaqt qatorlari va iqtisodiy indekslar kabi usullardan keng foydalangan holda turli statistik tahlillar o'tkazildi. Ushbu tadqiqot ishining obyekti sifatida jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tutgan o'rni va sohaning rivojlanish tendensiyalari tanlangan. Tadqiqotimizning maqsadi – xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining asosiy jihatlari, sohaning rivojlanishidagi tendensiyalarni statistik usullardan foydalangan holda chuqur tahlil qilish, ularning makroiqtisodiy darajaga ta'siri statistik baholash, shuningdek, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish asosiy yo'nalish sifatida belgilab olindi.

**Tahlil va natijalar.** Jahon banki ma'lumotlari ko'ra, 2021-yilda YalMDa xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymati 62,24 trillion AQSh dollarini tashkil etdi va bu jahon yalpi ichki mahsuloti hajmini 64,0 foizini tashkil etdi. 1-jadvalda 1995-yildan hozirgi davrgacha xizmatlar sohasining jahon yalpi ichki mahsulotiga ta'siri va tarmoqdagi bandlikning o'zgarishlar dinamikasi keltirilgan [9].

### 1-jadval


**Xizmatlar sohasining jahon yalpi ichki mahsulotiga ta'siri va bandlik**

Yillar	YalMDa xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymati, trln. dollar (joriy AQSh dollarida)	Xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymati (YalMDa nisbatan foizda)	Xizmatlar sohasida bandlik (jami bandlikka nisbatan foizda)
1995-yil	20,1	64,9	37,8
2000-yil	21,5	63,6	39,6
2005-yil	30,4	63,6	42,3
2010-yil	41,8	62,8	44,7
2015-yil	48,3	64,3	48,3
2016-yil	49,6	64,9	48,9
2017-yil	52,4	64,4	49,6
2018-yil	55,5	64,1	50,3
2019-yil	56,8	64,7	50,8
2020-yil	55,6	65,3	50,4
2021-yil	62,2	64,4	50,5

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

Tadqiqotda xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega bo'lgan AQSh, Lyuksemburg, Fransiya, Livan va Latviya davlatlari xizmatlar sohasining rivojlanish tarixi, tendensiylari va o'ziga xos jihatlari o'rganildi.

Ushbu davlatlar yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymatini 1-diagrammada ko'rishimiz mumkin.



**1-diagramma. Davlatlar YAMda xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymati  
(yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)**

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

**Lyuksemburg.** Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Lyuksemburgda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning to'rtdan uch qismini (79,3 %) tashkil

qiladi va mamlakat ishchi kuchining 88,5 foizini ish bilan ta'minlaydi (2-jadval).

### 2-jadval

**Lyuksemburgda iqtisodiy faoliyatning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2021-yil yakuni bo'yicha)**

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar sohasi
Qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)	0,2	11,2	79,3
Tarmoqlar bo'yicha bandlik (jami bandlikka nisbatadan foizda)	0,7	10,8	88,5

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

Xizmat turlari bo'yicha moliyaviy (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 28,3 %), ko'chmas mulk va biznes (22,5 %), savdo (10,5 %), transport (8,2 %), davlat (5,4 %), sog'lijni saqlash (5,1 %) hamda ta'lim xizmatlari tarmoqda eng katta ulushga ega [10]. Moliyaviy xizmatlar mamlakat iqtisodiyotining dvigateli hisoblanadi. 1960-yillarda soliqqa tortish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda korporativ kreditlash paydo bo'lishi moliyaviy sektorning jadal rivojlanishiga alohida e'tiborga loyiq hodisa bo'ldi. Chet el banklari Lyuksemburgda o'z bo'limlarini tashkil qila boshladi. Lekin haqiqiy bum 1980-yillarda, nemis jamg'armalarining ko'pchiligi milliy soliqlarni to'lamaslik uchun o'z mablag'larini Lyuksemburg banklariga ajratishni boshlaganda sodir bo'ldi. 1973-yilgi neft zarbasi va undan keyingi inqiroz Lyuksemburg iqtisodiyotida xizmatlar sohasini rivojlantirishga yana bir turtki bo'ldi. Biznes uchun qulay muhit va qulay soliq qonunlarini taklif etuvchi moliyaviy xizmatlar mamlakatni butun dunyodan transmilliy korporatsiyalar va yuqori daromadli

shaxslarni jalb qiluvchi jahon yetakchisiga aylantiridi [8]. Mamlakatning Yevropa markazida joylashuvi unga mustahкам transport va logistika industriyasini rivojlantirish imkonini berdi, xalqaro aeroport va dengiz porti Yevropa va dunyoning boshqa mintaqalari o'rtasida savdoni osonlashadir. Lyuksemburgning boy tarixi, ajoyib manzaralari va madaniy diqqatga sazovor joylari uni butun dunyodan kelgan sayyoqlar uchun mashhur manzilga aylantirgan. Hozirgi kunda mamlakat ichidagi barcha poyezdlar, tramvaylar va avtobuslar hamma uchun bepuldir. Bu tirbandlikni kamaytirish, havo sifatini yaxshilash, jamoat transportidan foydalanishni rag'batlantirish bilan bir qatorda mamlakatga sayyoqlarni jalb qilish imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

**AQSh.** Amerika iqtisodiyoti mohiyatan xizmatlarga asoslangan, uchinchi darajali tarmoq yalpi ichki mahsulotning 77,6 %ini tashkil qiladi va mamlakat ishchi kuchining 78,7 foizini ish bilan ta'minlaydi (3-jadval).

**2021-yil AQShda iqtisodiy faoliyatning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi**  
*(2021-yil yakuni bo'yicha)*

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar sohasi
<b>Qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)</b>	1,0	17,9	77,6
<b>Tarmoqlar bo'yicha bandlik (jami bandlikka nisbatan foizda)</b>	1,4	19,9	78,7

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

Xizmatlar sohasining katta qismini moliya, sug'urta, ko'chmas mulk, ijara va lizing xizmatlari tashkil etadi (jami xizmatlar hajmidagi ulushi – 20,1 %), shuningdek, professional va biznes xizmatlari (13,1 %), savdo xizmatlari (12 %), davlat xizmatlari (federal, shtat va mahalliy darajada) (11,6 %) hamda ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam xizmatlari (8,4 %) tarmoqda salmoqli ulushga ega[11].

Ikkinci jahon urushidan keyingi o'n yilliklarda xizmat ko'rsatish sohasi Amerika iqtisodiyotining eng yirik segmenti sifatida paydo bo'lib, Qo'shma Shtatlarni dunyodagi birinchi "xizmat ko'rsatish iqtisodiyoti"ga aylantirdi.

XIX asrning oxiriga kelib, jahonda qurilish sanoatining rivojlanishi boshlanganida, AQSh xizmat ko'rsatish tarmog'ini yaratdi va yangi xizmat turlarini o'zlashtirishda yetakchi bo'ldi. Keyinchalik o'rtacha daromadli oilalar uchun mo'ljallangan avtomobilning konveyer ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Bu asfaltlangan yo'llar, avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish shoxobchalari, shuningdek, yo'llar bo'ylab joylashgan umumiyoq ovqatlanish shoxobchalari tarmog'ining faol qurilishiga olib keldi. Yaratilgan transport tarmog'i va aloqa tizimi butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun asos bo'ldi [12].

K.Grossning tadqiqotlariga ko'ra, AQShda 1970-yildan 2005-yilgacha transport va sanoatda arzon energiya vositalarining paydo bo'lishi mehnat unumdoorligining oshishiga hamda xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi [13].

Qo'shma Shtatlarda moddiy rag'batlantirish, imtiyozli soliqqa tortish tizimi va oliv ta'lim xizmat-

lariga yaratilgan sharoitlar eng yaxshi olimlarni mamlakatga jalg qildi. Urush yillarda harbiy ehtiyojlarni qondirish uchun farmatsevtika va kimyo sohasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qartildi, bu esa keyinchalik nafaqat ushbu tarmoqlarda ta'limni yaxshilash, balki Amerika firmalarining tashqi bozorlarga chiqishiga ham asos bo'ldi. Ikkinci jahon urushi davrida xizmatlar sohasining rivojlanishiga mamlakatda xizmatlar ko'rsatiladigan yetarlicha katta ichki bozorga ega bo'lganligi ham yordam berdi. Ikkinci jahon urushi tugagandan so'ng, Amerika sanoati o'zining urush uchun quroslasla ishlab chiqarishga mo'ljallangan zamonaviy zavodlarini fuqarolik ehtiyojlari uchun tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltirishga muvaffaq bo'ldi.

AQSh xizmatlar sohasining rivojlanishiga hissa qo'shgan asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi: ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va ehtiyojlarning ortib borishi qonunining keyingi ta'siri, aholi turmush daramasining oshishi, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi tomonidan har xil turdagil xizmatlarga talabning ortishi. Shuningdek, urbanizatsiya, demografik o'zgarishlar, ish kunining qisqarishi, aholi o'rtaida bo'sh vaqtning ko'proq paydo bo'lishi sog'liqni saqlash, ta'lim, maishiy, ijtimoiy, turistik va madaniy ko'ngilochar xizmatlarning rivojlanishiga xizmat qildi.

**Fransiya.** Xizmatlar sohasi Fransiya yalpi ichki mahsulotining 70,3 foizini tashkil qiladi va faol ishchi kuchining 77 foizini ish bilan ta'minlaydi (4-jadval).

**Fransiyada iqtisodiy faoliyatning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi**  
*(2021-yil yakuni bo'yicha)*

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar sohasi
<b>Qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)</b>	1,6	16,7	70,3
<b>Tarmoqlar bo'yicha bandlik (jami bandlikka nisbatan foizda)</b>	2,5	20,4	77,0

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

Fransiyaning asosiy tarmoqlaridan biri turizmdir. Turizm mamlakat YAMning qariyb 9 foizini tashkil etadi. Fransiya 2022-yilda 66,6 million xorijiy tashrif buyuruvchi bilan dunyoda yetakchi bo'ldi [14]. Shuningdek, xizmatlar sohasida ma'muriy xiz-

matlar (shu jumladan, davlat boshqaruvi) (jami xizmatlar hajmidagi ulushi – 21,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (12,8 %), fan va ta'lim (10,3 %), savdo (10,4 %), sog'liqni saqlash (7,5 %), telekommunikatsiya va aloqa xizmatlari (5,4 %), trans-

port va logistika xizmatlari (4,6 %) hamda moliyaviy xizmatlar (3,8 %) salmoqli ulushga ega hisoblanadi [15]. Xizmatlar sohasi eng tez rivojlanayotgan va bandlik o'sishda davom etayotgan Fransiya iqtisodiyotining yagona tarmog'idir.

Xizmatlar sohasi rivojlanishiga davlat tomonidan kreditlar va subsidiyalar tizimi orqali katta yordam ko'rsatilishi, intensiv shaharlar va temir yo'llarning qurilishi yordam berdi. 1929-yilgi inqirozdan Fransiya savdo tarmog'i yorqinlik bilan chiqdi. Fransiyada 1930-yillarda Parij universal do'konlari "xalq do'konlari"ga aylantirildi, ularda tovarlar assortimenti qisqartirilib, arzon narxlar joriy etildi. Savdoning boshqa turlari ko'p sonli bo'limlarga ega bo'lgan jamiyatlar – iste'mol kooperativlar (savdo korxonalar sifatida) tashkil etildi. Hukumatning harakatlari tufayli umumiy ovqatnash tarmoqlari rivojlandi. Korxonalar tomonidan o'z xodimlari uchun tushliklarni majburiy ta'minlash to'g'risida qonun qabul qilindi. Bu, o'z navbatida, kasalxonalar, maktablar va qamoqxonalarga xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish korxonalarining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bunga "ijtimoiylik prinsipi" paydo bo'lgan 1968-yil voqealari ham sabab bo'ldi. Shu bilan birga, korxonalarda ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi ham kuzatildi [16].

Farnsiyada qadimdan sayyoohlarni tarixiy va tabiiy diqqatga sazovor joylari – qal'alar va cherkovlar, Kot d'Azur kurortlari, Biskay ko'rfazi, Massif Markaziy shifobaxsh suvlar, Alp tog'laridagi qishki

sport bazalari, turli tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan bog'liq joylari o'ziga jalg qilib kelgan. Madaniy va gastronomik merosini kashf qilish va xarid qilish xorijlik sayyoohlarni orasida mashhur bo'lgan asosiy tadbirdir.

Bilim va xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyotini barpo etishning asosini yuqori malakali kadrlar va ilm-fan tashkil etadi. Fransiya iqtisodiyotining asosiy afzalliklaridan biri fundamental tadqiqotlarning yuqori darajada rivojlanganligidir. Fransiya tabiiy fanlar sohasida jahon nashrlari ulush bo'yicha yetakchilardan biri hisoblanadi. Bu ko'p jihatdan mamlakatda oly ta'lidan mustaqil ixtisoslashtirilgan davlat ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgani, ular faqat fan va taraqqiyot bilan shug'ullanishi bilan bog'liq. Mamlakatdagi fundamental tadqiqotlarning asosiy qismi aynan ularda amalga oshiriladi.

Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda soadir bo'lgan iqtisodiy va davlat boshqaruvida keskin o'zgarishlar, yangi ijtimoiy himoya tizimi va siyosatini yaratish, ta'lim va innovatsiyalarni kuchli qo'llab-quvvatlash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar orqali texnologiyalar transferini amalga oshirish, tegishli urbanizatsiya va qishloqlarni rivojlantirish siyosati hamda Yevropa mintaqaviy integratsiyasi orqali Fransiyada xizmatlar sohasi jadal rivojlandi.

**Livan.** Xizmatlar Livan iqtisodiyotining dominant tarmog'i bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 94,1 foizini tashkil qiladi va ishchi kuchining 65 foizini ish bilan ta'minlaydi (5-jadval).

### 5-jadval

**Livanda iqtisodiy faoliyatning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi  
(2021-yil yakuni bo'yicha)**

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar sohasi
<b>Qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)</b>	1,4	2,8	94,1
<b>Tarmoqlar bo'yicha bandlik (jami bandlikka nisbatadan foizda)</b>	11,3	23,6	65,1

*Manba:* Jahon banki ma'lumotlari.

Bank sektori an'anaviy ravishda iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lgan, ammo u katta inqirozni boshidan kechirmoqda. Shuningdek, tarmoqda turizm, savdo va IT xizmatlari salmoqli ulushga ega. Turizm yalpi ichki mahsulotning deyarli 20 foizini tashkil qiladi va faol aholining qariyb 18 foizini ish bilan ta'minlaydi. Tarmoq hozirda mamlakat boshdan kechirayotgan jiddiy iqtisodiy va siyosiy inqirozdan aziyat chekmoqda. Livan iqtisodiyoti ochiq savdo va investitsiya siyosati, erkin bozor narxlari, rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar bilan ajralib turadigan liberal iqtisodiy modelning yorqin namunasidir [17].

Bank sektorining yuksak nufuzi Livanning bank-moliya markazi va Yaqin Sharq mintaqasining "Shveysariya"si sifatida tan olinishiga xizmat qildi. Livan 1940-yillarning o'rtalarida mahalliy va xorijiy xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, chet el kapitali-

ga mahalliy kapital bilan teng imkoniyatlar yaratish, liberal valyuta va bojxona rejimini saqlash maqsadida iqtisodiyotga davlat aralashuvini cheklash tamoyillariga asoslangan rivojlanish yo'lini tanladi.

1975-1990-yillardagi fuqarolar urushi natijasida milliy iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari jiddiy zarar ko'rdi, mamlakat infratuzilmasi vayron qilindi, mamlakatning Yaqin Sharqdagi muhim iqtisodiy, savdo va bank markazi sifatidagi mavqeyiga putur yetkazildi. Fuqarolar urushi yuqori tashqi qarzga, inflatsiyaning o'sishiga va surunkali davlat budgeti taqchilligiga olib keldi. Ssdalar va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish Livan iqtisodiyotining infratuzilmasini tiklash va qayta qurish jarayonini tezlashtirishga yordam berdi [18]. 2000-yillar boshida fuqarolar urushi tugaganidan 10 yil o'tib, Livan yana Yaqin Sharqda savdo, moliya va bank sohasida muhim o'rinni egallay boshladi. Bunga Livan banklarida

istalgan valyutada istalgan miqdorni o'tkazish uchun berilgan cheksiz huquq, hisoblar qat'iy maxfiy va istalgan valyutada ochilishi, bank siri, jumladan, mijozlarning ism-shariflari, ularning aktivlari haqidagi ma'lumotlar, Livan qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilgan operatsiyalar, hech qanday ma'muriy, harbiy, sud organlari yoki jismoniy shaxslarga oshkor etilishi mumkin emasligi, chet el valyutasi va Livan lirasini import qilish, eksport qilish, ayirboshlash cheklanmaganligi sabab bo'ldi. Mamlakatda valyuta nazorati va boshqa cheklolvar mavjud emas. Shuning uchun Livanda arab davlatla-

ri va g'arb davlatlari o'rtaсидаги valyuta operatsiyalarida vositachilik katta o'rinni egallab, g'aznaga katta daromad keltiradi.

**Litva.** Litva hozirda Yevropa Ittifoqining eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlari qatoriga kiradi. Mamlakatda xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulotning 60,7 foizini tashkil etadi va faol aholining uchdan ikki qismidan ko'prog'ini (67,9 foiz) ish bilan ta'minlaydi (6-jadval). Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya xizmatlari (5,2 %), turizm xizmatlari (5,0 %) va moliyaviy xizmatlar yalpi ichki mahsulotda salmoqli ulushga ega hisoblanadi [19].

#### 6-jadval

**Litvada iqtisodiy faoliyatning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil yakuni bo'yicha)**

	Qishloq xo'jaligi	Sanoat	Xizmatlar sohasi
Qo'shilgan qiymat (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizda)	3,3	25,3	60,7
Tarmoqlar bo'yicha bandlik (jami bandlikka nisbatadan foizda)	6,4	25,7	67,9

*Manba:* Jahan banki ma'lumotlari.

1990-yillarda Sovet Ittifoqi parchalanganidan beri Litva iqtisodiyoti bozorni liberallashtirish va isloh qilish jarayonini boshdan kechirdi. Litvaning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadigan eng muhim omillardan biri uning 2001-yilda jahon savdo tashkilotiga va 2004-yilda Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi bo'ldi. Bu Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtaşıda ishchi kuchi, kapital va savdoning erkin harakatlanshiga hamda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga yordam berdi.

Litvada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi jadal rivojlangan bo'lib, hozirgi kunda ham boshqa mamlakatlardagi tadbirkorlar uchun jozibador sharoitlar yaratmoqda. Hukumat tomonidan tasdiqlangan raqamlashtirish dasturi Litvada IT xizmatlarining barqaror va ishonchli rivojlanishiga xizmat qildi. IT-xizmatlarini yanada integratsiyalash va takomillashtirish loyihaning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari Litva infratuzilmasi, tezkor internet aloqlari, qulay soliq tizimi va texnologiyalar ushbu soha vakillari hamda kompaniyalarni mamlakatga jalb qildi. Bu omillar dasturiy ta'minot va videoo'yinlar ishlab chiqish, sun'iy intellekt yechimlari va moliyaviy texnologiya sektorlari sohasidagi dunyodagi eng mashhur kompaniyalarning Litvaga ko'chib otishiga olib keldi. IT sohasi muvaffaqiyatining sabablaridan biri ilg'or tarmoqlarning ishlashiga yordam beruvchi hukumat tashabbuslaridir. Doimiy izlanishlar, jozibador soliq imtiyozlari va innovatsion platformlardan oson foydalanish korxonalarga zamona-viy bozor ehtiyojlariga javob beradigan zamonaviy mahsulotlarni sinab ko'rish va yetkazib berish imkonini beradi [20].

Litva o'ziga butun dunyodan va qo'shni mamlakatlardan ko'plab sayyoohlarni jalb qiladi. 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, Litvaga biznes, oilaviy va dam olish maqsadlarida 2 million xorijlik sayyooh tashrif buyurgan. Bu sayyoohlarni soni bo'yicha boshqa mam-

lakatlarga nisbatan past ko'rsatkich ekanligi aniq. Lekin sayyoohlarni Litva aholisiga nisbatan ola-digan bo'lsak, natija ancha taqqoslanadigan ko'ri-nishga ega: har bir aholiga 0,82 sayyooh to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich bo'yicha Litva dunyoda 52-o'rinni egallaydi. Litva Buyuk Gersogligining tarixiy merosi, arxitekturasi, beg'ubor tabiat, dengiz va kurortlari Litvaning asosiy diqqatga sazovor joylari hisoblanadi. Ichki turizm ham ancha rivojlangan. Litvaliklar o'z ta'tillarini Litvada o'tkazishni afzal ko'rishadi (litvaliklarning 70 foizi). Turizm sohasi ravnaqida turizm strategiyasi va milliy turizm axborot tizimining ishlab chiqilishi munosib o'r'in tutdi [21].

Mamlakat 2021-yilda Jahan banki guruhining dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida biznes yuritish qulayligini baholovchi "Biznes yuritish" indeksida 11-o'rinni egalladi.

Xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining tobora muhim tarmog'iga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra (7-jadval), 2022-yilda xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 41,5 foizini tashkil etdi. Xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar (jami xizmatlarga nisbatan ulushi - 23,5 %), savdo xizmatlari (23,5 %), transport xizmatlari (23,1 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 %) salmoqli ulushga ega [22].

**Xulosha va takliflar.** Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti asta-sekinlik bilan xizmatlar sohasiga o'tishi va uning rivojlanishi muqarrar jarayondir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sohaga e'tibor va qo'llov mamlakat iqtisodiy kelajagi ravnaqiga hamda qudratini oshirishiga xizmat qiladi.

Biz ko'rib chiqqan mamlakatlar har xil iqtisodiy-siyosiy vaziyatlarda bo'lishiga qaramay, xizmatlar sohasiga asoslangan iqtisodiy yo'lni tanlashi hozirgi kunda iqtisodiy barqaror taraqqiy etishiga sabab bo'ldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti tarkibi

Yillar	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
2000-yil	34,4	16,2	6,9	42,5
2005-yil	29,5	23,7	5,4	41,4
2010-yil	30,6	18,7	5,4	45,3
2015-yil	32,1	19,1	5,7	43,1
2016-yil	32,1	19,5	5,6	42,8
2017-yil	32,2	21,1	5,4	41,4
2018-yil	29,7	24,7	5,8	39,8
2019-yil	26,6	27,5	6,2	39,6
2020-yil	26,8	26,8	6,7	39,7
2021-yil	26,5	27,3	6,6	39,6
2022-yil	25,1	26,7	6,7	41,5

**Manba:** Statistika agentligi ma'lumotlari.

O'zbekistonda ham yuksak iqtisodiy salohiyat va resurslar yetarli darajada mavjud bo'lib, uni aynan xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratish eng oqilona yo'l hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz natijasida O'zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Turizm xizmatlarida tarixiy yodgorliklar, zamonaviy infratuzilma, jozibador tabiat, mehmondo'st kishilar mamlakatimiz turizm salohiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Turizm taklifini diversifikasiya qilish, sohada xizmat ko'rsatuvchilar ta'limi va malakasini oshirish, turistik manzillarga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash hamda ichki turizmni kengroq targ'ib qilish zarur. Bugungi kunda ichki turizmda taklif qilinayotgan imtiyozlar ro'yxatini kengaytirish (jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun) nafaqat turizm rivojlanishi, balki boshqa xizmat turlarining o'sishiga tutki bo'ladi.

Transport xizmatlarini rivojlantirishda min-taqamiz Osiyoni Yevropa bilan bog'lagan muhim transport koridorining markazida joylashgan. Xal-

qaro transport koridorlarini rivojlantirish, yo'lovchi va yuk tashish transporti oqimlarini maqbullashtirish, xalqaro va mintaqaviy tranzitni rivojlantirish zarur. IT sohasida esa xorijiy IT kompaniyalar va mutaxassislariga mamlakatimizda faoliyat yuritishiда huquqiy baza, infratuzilma, tezkor internet aloqalari va qulay soliq tizimini yaratish zarur.

Sog'liqni saqlash xizmatlarida mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasidagi kadrlar sifati jihatidan Markaziy Osiyoda yetakchi hisoblanadi. Ushbu salohiyatdan foydalangan holda qo'shni mamlakatlarga xizmatlarni keng targ'ib qilish orqali sayyoohlarni jalg qilish, jumladan, aeroport yoki temiryo'l stansiyasidan kutib olib, shifoxona yoki davolanish maskaniga joylashtirish xizmatlarini turistik agentliklar orqali taklifini yo'lga qo'yish, shuningdek, onlayn tibbiy xizmatlarni rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, yuqorida qayd etib o'tilgan takliflarni amalga oshirish natijasida mamlakatimizda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish imkoniy yaratiladi.

#### Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Delaunay J.C., Gadrey J. *Services in Economic Thought: Three Centuries of Debate* Springer; 1992 nd edition.
2. Adam Smith. *The Wealth of Nations* William Strahan and Thomas Cadell 1776.
3. Hill. T.P. "On Goods and Services", *The Review of Income and Wealth*, 23, 315-338, 1977.
4. Griliches, Zvi (ed.), *Output Measurement in the Service Sectors*, NBER Studies in Income and Wealth, Vol. 56, University of Chicago Press, Chicago, 1992.
5. Rostow W.W. (1971) *Politics and the Stages of Growth*, Cambridge University Press, Cambridge.
6. Castells M. *The Information Age: Economy, Society and Culture*, 1996-1998, Vol. I-II, Blackwell Publishers, Oxford.
7. Jonathan Kaminski. "Lessons from the French structural transformation and early economic tertiarization for economic development in Africa" *HDI 2020*, Volume 3, Issue 1.
8. Lucia Gargano. "Le Luxembourg 1960-2010". L'essor du secteur tertiaire au Luxembourg <http://www.statistiques.lu>
9. Jahon banki ma'lumotlari web-sayti: <http://www.data.worldbank.org>
10. Lyuksemburg Iqtisodiyot vazirligi tasarrufidagi Milliy statistika va iqtisodiy tadqiqotlar instituti web-sayti: <http://www.statistiques.lu>
11. Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiy tahlil Byurosi: <https://www.bea.gov/>
12. Квасова Д.С. Факторы и тенденции развития третичного сектора экономики США. // Журнал экономические и юридические науки. 2008 г. № 14. С. 15-21.
13. Witt U, Ch. Gross. The rise of the "Service economy" in the second half of the twentieth century and its energetic contingencies. *Journal of Evolutionary Economics*. 2020.
14. Dunyoning eng yirik ma'lumotlar bazasi – GlobalData web-sayti: <https://www.globaldata.com/>
15. Fransiya Milliy statistika va iqtisodiy tadqiqotlar instituti web-sayti: <https://www.insee.fr/en/>
16. Квасова Д.С. "Развитие третичного сектора экономики в развитых странах". Труды БГТУ Серия 5 № 2 2018 г. № 14. С. 85-92.
17. Berthélemy J.C., Nahas Ch., Dessus S. "Exploring Lebanon's growth prospects" ResearchGate 2007.
18. Chapter Two: Economic Development and Reconstruction "The Lebanese Economy prior to 1975 Impact of the War on the Lebanese Economy Evolution of the Lebanese Economy in the 1990s The Reconstruction and Development Plan" 1997. <http://www.undp.org.lb>
19. Xalqaro savdo portal. "Litvanian iqtisodiy konteksi". <https://www.lloydsbanktrade.com>
20. Ruzgys T. "Lithuania – a country that has already earned its name in the IT sector" 2022. <https://www.crayon.com>
21. Tourism in Lithuania. <https://www.worlddata.info>
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti: <https://stat.uz>